



## YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQIY NIGILIZIM TUSHUNCHASI VA UNING OLDIN I OLISH CHORALARI

Zamonov Sarvar Jovli o'g'li

SamDU Yuridik fakulteti 2- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651650>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-oktabr 2021

Ma'qullandi: 25- oktabr 2021

Chop etildi: 30- oktabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Huquqiy  
huquqbuzarlik,  
masalasi,  
savodxonlik

nigilizm,  
tarbiya  
huquqiy

### ANNOTATSIYA

*Maqolada huquqiy nigilizm tushunchasi, uni kelib chiqishi sabablari, huquqiy nigilizmni bartaraf etish uchun yechimlar va tarbiya masalasiga oid turli xil muommolar ochib berilgan bo'lib, unda jamiyatimiz uchun muhim bo'lgan fikrlar o'z tasdig'ini topganini ko'rishimiz mumkin*

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq islohotlari izchillik bilan davom etmoqda. Ammo bu borada qilinadigan ishlar, huquqni muhofaza qiluvchi, davlat idoralari, hokimliklar, mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalari oldida vazifalar ko'p. Ana shulardan biri yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odoq-axloq qoidalarga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish bo'lib hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ta'kidlash kerakki, yoshlar masalasi har bir davrning o'ta dolzarb masalasi bo'lib

kelgani ayni haqiqat. Muarrirlarning yozishicha, Gerodot sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: "Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyabdi. Nima qilish kerak?"

Bundan ko'rinadiki, yoshlar masalasi hamisha o'z dolzarbligini yo'qotmagan bunga turli davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan. Haqiqat juda achchiq bo'ladi balki shuning uchundirki uni ko'pchilik tan olgisi kelmaydi. Xalqimizda qush uyasida ko'rganini qiladi degan naql bor. Gap shu haqda borarkan mashhur adibimiz Abdulla Qahhorning fikrlarini yodga olmaslikni iloji yo'q. u kishi shunday deydi: «Biz ko'pincha yoshlarimiz tarbiyasi buzilyabdi deymiz, xolbuki buzuq tarbiya

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan

takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. [//http://www.lex.uz](http://www.lex.uz).



osmondan tushayotgani yo'q, o'tmish qoldig'i malum shart- sharoit bo'lmasa davom etolmaydi». Achchiq bir haqiqatni tan olishimiz kerakki sobiq Ittifoq davrida biz madaniyatimizdan judo bo'ldik, huquqsizlikka mahkum etildik. O'zining huquqini talab qilib chiqqan, xalqning manfaatini o'ylagan ilg'or fikrli insonlarga qarshi juda ham kuchli ta'qiblar olib borildi. Biz hozir ozgina tarixga nazar solib o'tdik bundan maqsad nima?

Afsuski hozirgi kunda ham o'sha davr muhitidan chiqa olmagan, huquqiy savodxonligi juda past insonlar topiladi. Farzandlarining jamiyatda qabul qilinayotgan yangi qonunlar muhokamasida faol ishtirok etishiga, jamiyatni rivojlantirishga doir ilg'or fikrlarini erkin aytishiga qarshilik qilayotgan ota-onalar yo'q emas "siyosatga aralashma" qabilidagi fikrlarning ko'p marotaba aytilishi yoshlarimizni huquqiy nigilizmga moyil qilib qo'ymayotganmikin? Yoshlarimiz rivojlanib borayotgan davlatimizni yanada rivojlantirish uchun o'zining qaynoq fikrlarini bildirishi lozim go'yoki dadil fikrlar shaxmat o'yinidagi oldingi qator donalari vazifasini bajarishi, ular halok bo'lsada g'alabani ta'minlashi jadidchi bobolarimizning hayot yo'llari orqali bizga ma'lum. Yoshlarimiz o'rtasida huquqiy nigilizim haqida so'z yuritilar ekan deyarli barchasi odob-ahloq tarbiya masalasiga borib taqaladi. Yoshlar o'rtasida huquqiy nigilizim tushunchasi deganda nima tushuniladi?

Bu avvalo, yoshlarning odob-ahloq qoidalari va jamiyatda mavjud bo'lgan qonun farmon va qarorlarga past nazarda qarash yoxud qonunni mensimasligi tushiniladi. Yoshlar huquqiy nigilizmi huquq va qadriyatlarga nisbatan faol qarshilik ko'rsatishi bilan ajralib turadi, bu

borada ular huquqni, uning qadriyatlarini, umuman, huquq va uning ayrim institutlarini faol rad etadilar.

Yoshlar huquqiy nigilizmning ko'proq dastlabki ikki shakli namoyon bo'ladi, jumladan, amaldagi qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri buzadi, shuningdek, jinoiy jazolanadigan qilmishlarni sodir etish tushunish mumkin.

Bu borada biz avvalo, huquqiy nigilizmni huquqbuzarlik atamasidan farqlab olishimiz kerak. Huquqiy nigilizm bu huquqbuzarlik emas. Huquqbuzarlik - bu- huquq subyetining aybli, huquqqa zid, jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga zarar keltiruvchi, yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi qilmishdir. Demak, huquqbuzarlikka zamin yaratib beradigan hodisalardan biri bu huquqiy nigilizmdir. Bu yomon illat yoshlarimiz orasida afsuski keng tarqalyabdi. Bunga oddiy misol keltiradigan bo'lsak, hozirgi kunda ko'p takrorlanayotgan asosan, yosh fuqarolarimiz sodir etgan huquqbuzarligi uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining qo'llagan qonuniy choralari ustidan ularga nisbatan turli xil haqoratli so'zlarni ishlatishi yoki ta'qib qilishi bu qonunni mensimaslikdir yoki huquqiy nigilizimga yaqqol misoldir. Bunday o'gir sharoitda yoshlarimizda keng dunyoqarashni shakllantirishning ular o'rtasida huquqiy nigilizimni oldini olish uchun nima qilish kerak? Biz bu yo'lda qanday chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak?

Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik uchun jinoiy javobgarlik kuchaytirildi. (O'RQ- 719- son, 04.10.2021-



yl). Ushbu qonunning Prezidentimiz tomonidan imzolanishi, fuqarolarimiz o'rtasida huquqbuzarlik va huquqiy nigilizmning oldini olishga qaratilgan muhim tadbirlardan biridir. O'ylab ko'radigan bo'lsak, bunday salbiy holatlarning tub ildizi aksariyat hollarda oilaga va jamiyatdagi muhitga, ta'lim tarbiyaga bog'liq. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-ahloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarash bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryabdi. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat doimo ularning qalbida aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? „Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan“, deya ta'kidladi prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev. Bejiz Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam "Hech bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi", demagan.

Darhaqiqat, bugungi kunda turli xil ommaviy madaniyat ta'siri ostiga tushib madaniyati, dini, huquqidan yiroqlashayotgan yoshlarimiz ham yo'q emas Prezidentimiz ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilishni taklif qildi. Mamlakatimiz prezidenti bunga asos qilib, yoshlarning soni ikki milliarddan ortib qolgani, xalqaro terrorizm va ekstrimizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya

zarurligini muhim omillar sifatida ko'rsatdi. Prezident dunyo yoshlari o'rtasida zo'ravonlik g'oyasi tarqalishining oldini olish kerakligini, ularning huquq va manfaatlarini, turmushini ijtimoiy himoya qilish uchun dunyo xalqlardan ko'p tamomlana hamkorlik tashabbusi so'ralishini aytib o'tdi. Yoshlar huquqlarini bir me'yorda belgilash va uni himoya qilish globallashuv va axborot texnologiya rivojlanish davrining muhim sharti ekanligi ta'kidlandi. Shuningdek, ushbu konvensiyani imzolagan a'zo davlatlar mamlakat ijtimoiy siyosatida yoshlar masalasini muhim yo'nalish sifatida ko'rib zimmasidagi katta masuliyatni ado etish kerak deb fikr bildiradi prezidentimiz.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yoshlar masalasi xalqaro miqyosda ham dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi davrda dunyoning yuqori sur'atlarda rivojlanishi natijasida turli xil axborot xuruji, bir guruh aqidaparastlarning yoshlarimiz onggiga hujum qilish hollari kuzatilyabdi. Bunday vaziyatda dunyoqarashi tor, huquqiy savodxonlik darajasi nihoyatda past bo'lgan yoshlar ularning tuzog'iga ilinib qolmoqda. Bundan jamiyatimiz, nafaqat jamiyatimiz balki butun dunyo zarar ko'rmoqda. Biz bunday vaziyatda chuqur o'ylab ko'rgan holda o'zimizga bir savolni berishimiz haqli deb o'ylayman. O'z bag'rida o'stirgan, ulg'aytirgan va mehr bergan yoshlarimiz ayni yetuk bo'lib voyaga yetganda biz ularni insoniyat dushmani bo'lmish muqaddas dinimizni niqob qilgan bir guruh aqidaparastlarning qo'liga topshirib qo'yishimiz bu millatimiz uchun bir fojea hisoblanmasmikin?

Darhaqiqatki, jamiyat va davlat ijtimoiy faol va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalashdan manfaatdordir.



Davlat va jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismi bo'lmish huquqiy madaniyat to'g'risida alohida g'amxo'rlik qiladi. Yoshlarimizda huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lishi lozim. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy manbalar normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi, aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur.

Agar statistikaga nazar soladigan bo'lsak, Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2019- yilning iyul oyi holatiga ko'ra, yoshlar jinoyatchiligi 4549 marta kuzatilgan bo'lib o'tgan yilga nisbatan 39.1 foizga kamaygan. Shuningdek, Toshkent shahrida 78.9, Andijon viloyatida 67.3 foiz, Samarqand viloyatida 51.9 foiz, Jizzax viloyatida 46.5 foiz, Namangan viloyatida 44.4 foizga, Sirdaryo viloyatida 39 foiz, Xorazm viloyatida 38.7 foiz, Navoiy viloyatida 33.7 foiz, Farg'ona viloyatida 33.3 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasida 25.7 foiz, Toshkent viloyatida 20.8 foiz, Buxoro viloyatida 14.5 foiz, Qashqadaryo viloyatida 9.4 foiz, Surxondaryo viloyatida esa 3.1 foizga kamaygan.

Oliy Majlis Senatining oltinchi yalpi majlis kun tartibi doirasida Ichki ishlar vazirining Ozbekiston Respublikasi huzurida 2020-yil olti oyi bo'yicha jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish holati to'grisidagi axboroti eshitildi. Unda ta'kidlanganidek, sohada amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida umumiy jinoyatlarning 20 497 tasi yoki 95,2 foizi fosh etilgan. Yoshlar bilan ishlashda hanuz ko'plab muommolar saqlanib qolayotganligi, ularni bartaraf

etishga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi oqibatida 2020- yilning olti oyida respublikada qayd etilgan har to'rtinchi jinoyat ya'ni 4 988 ta yoki 23,2 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, shundan 1315 tasi yoki 6 foizi ish bilan band bo'lmagan yoshlar tomonidan sodir etilganligi ta'kidlangan. Bu ko'rsatkichlardan kelib chiqib statistika oldingi yillardan bir muncha yaxshilangani bilan hali hanuz yoshlar bilan ishlashda katta kamchiliklarimiz bor.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda yoshlar o'rtasida Ozbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida ko'rsatilgan o'g'rilik jinoyatlarini sodir etish hollari yoki talonchilik jinoyatlari, ya'ni ko'cha-ko'yda fuqarolarning qimmatbaho buyumlarini, taqinchoqlarini talonchilik yo'li bilan olib ketish kabi jinoyatlar ko'plab uchrayabdi. Achinarli holatlardan yana biri o'smir yoshlar o'g'irlik qilish bilan birga badanga o'g'ir shikast yetkazish, birovning joniga qasd qilish va uyushgan jinoyatchilikka ham qo'l urmoqda. Ba'zi yoshlar fikricha, kattalarning bolalarga shaxs o'laroq munosabatda bo'lmasliklari ham yoshlarni jinoyatga boshlovchi omil sanaladi.

Avvalo, yoshlar bilan ishlash tizimini mukammallashtirish muhtaram prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha - hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir. Har qaysi mahalla raisi "Bugun men yoshlar uchun nima qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima qilishim kerak? degan savollarga javob beradigan shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt kedi". degan so'zlarini eslashimiz o'rinli deb o'ylayman.



Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Biz yoshlarimizning yuksak manaviyatli, barkamol bo'lib yetishishida o'z fikrlarimizni bayon etar ekanmiz,

- *birinchidan*, yoshlarimiz orasida kitobxonlikni yanada keng targ'ib qilish;

- *ikkinchidan*, iste'dodli yoshlarimizning qobiliyatini to'la namoyon etishida yanada qulay sharoit yaratib berish;

- *uchinchidan*, intellektual faoliyat natijasida yutuqqa erishgan yoshlarimizning mehnatini munosib va

yanada yuqori baholanishi yuzasida yanada ko'proq amaliy harakatlar olib borilish;

- *to'rtinchidan*, yoshlarimizning bo'sh vaqtini qanday o'tayotganligini nazorat qilish, shuningdek ularni ishga joylashuvida amalda yordam berish;

- *beshinchidan*, yoshlarimiz orasida uzluksiz huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish va xalqimizga ma'naviy oziq berish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqi. 2017- yil 19-sentabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichlarga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risidagi" Farmoni. 6017-son. 30.06.2020
3. 3.. Odilqoriyev.X.T. " Davlat va huquq nazariyasi". " Adolat " nashriyoti, 2018. 461- bet.
4. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016- yil 14-sentabr
5. "2020- yil olti oyida sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 95.2 foizi fosh etilgan- Ichki Ishlar Vaziri. Xs.uz sayti.